



O‘ZBEK TILI TEZAURUSI UCHUN SIFAT LEKSEMALARING SEMANTIK MUNOSABATLARI

Po‘latova Gulhayo G‘ofurjon qizi

gpulatova2409@gmail.com

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sifat leksemalarining tildagi o‘rni, semantik maydoni haqidagi fikr bildirilgan. Semantik maydon kompyuter leksikografiysi taraqqiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega. Terminlar tezaurusida semantik maydon nazariyasiga asoslanish sohaga oid tushunchalarini tez va oson o‘zlashtirish imkonini berishi yoritilgan. “Achchiq” sifat leksemasining semantik maydoni va tezaurusi haqida mulohazalar keltirilgan.

Abstract. This article expresses an opinion about the place of quality lexemes in the language, the semantic field. The semantic field has a special place in the development of computer lexicography. In the thesaurus of terms, it is explained that basing on the theory of the semantic field allows to quickly and easily master the concepts of the field. Comments are made on the semantic field and thesaurus of the adjective lexeme “achchiq”.

Аннотация. В данной статье высказывается мнение о месте качественных лексем в языке, семантическом поле. Семантическое поле занимает особое место в развитии компьютерной лексикографии. В тезаурусе терминов поясняется, что опирание на теорию семантического поля позволяет быстро и легко освоить понятия поля. Даются комментарии к семантическому полю и тезаурусу лексемы «achchiq».

Kalit so‘zlar: *sifat leksemalari, sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari, semantika, semantik maydon, tezaurus, “achchiq” leksemasi tezaurusi.*

Kirish

O‘tgan davr mobaynida yurtimizda milliy ma’naviyatimiz, o‘zligimizni ifodalovchi tilimizga, uni ilmiy tadqiq qiluvchi tilshunosligimizga katta e’tibor qaratildi va mazkur jarayon izchil davom etmoqda. O‘zbek tilshunosligida fan taraqqiyoti sezilarli darajada yuksaldi. Bunda jahon tilshunosligi yutuqlaridan o‘rinli foydalanish, ularni amalda qo‘llash o‘z ijobiylarini berdi. Natijada erishilayotgan yutuqlarimiz nafaqat mamlakatimiz tilshunoslida, balki dunyo tilshunoslida ham ma’lum bo‘lib bormoqda. Erishilayotgan muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda qilinishi lozim bo‘lgan tadqiqotlar ham mavjud bo‘lib, ularning sirasiga o‘zbek tilida tezaurus lug‘atlarni ishlab chiqish, o‘zbek tilini o‘rganuvchi xorijliklar uchun elektron lug‘atlarni yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Jamiyat rivojlanishining qizg‘in pallasiga kirgani sari tilimizda o‘ziga xos taraqqiyot yuz berishi tabiiydir. Binobarin, tildagi so‘zlarning shakl va ma’no jihatdan taraqqiy etishi ulardagi ushbu munosabatlarni kengroq tadqiq etishni taqozo



etadi. So‘zlarning o‘zaro shakl va ma’no munosabatlari turlicha. Ayrim so‘zlar shaklan har xil, lekin ma’no jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lsa, boshqalari shaklan bir xil, ammo ma’nolari turli xil, ba’zilari esa bir-biriga qarama-qarshi so‘zlar ham bo‘lishi mumkin. Bunday hodisa tilshunoslikda semantik munosabat deyiladi. Sintagmatikada lisoniy birliklar orasidagi munosabatlar aniqligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Qiyoslang: Ekilgan ko‘chatlar viqor bilan ko‘kka bo‘y cho‘za boshladi. Ko‘rinib turibdiki, nutq faoliyatida muayyan “yotiq chiziq”qa joylashib, muayyan tartibda, mantiqiy ketma-ketlikda kelgan birliklar orasidagi munosabatlar sintagmatik munosabatni hosil qiladi. Sintagmatik munosabatlar doimo yaqqol ta’sir qilishi insonda lisoniy sezgi uyg‘otishi bilan ham o‘ziga xosdir [Israilova, 2023].

Asosiy qism

O‘zbek tilshunosligida kompyuter lingvistikasiga doir qator izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, mashina tarjimasi, korpus texnologiyasi, kompyuter leksikografiysi hamda dasturiy ilovalarning lingvistik asoslarini ishlab chiqish, leksikografik matnlarga ishlov berish va lingvostatistik tahlil etish borasida muayyan darajada natijalarga erishib kelinmoqda. N.Abduraxmonova o‘zining tadqiqotlarida kompyuter leksikografiysi, ontologiya tezaurus, WordNet, korpusga asoslangan ta’lim texnologiyasiga bag‘ishlangan bir nechta ilmiy ishlarni e’lon qilgan.

Tezaurus tushunchasi bugungi kunda keng ma’no ottenkasiga ega tushuncha. Keng iste’molda konseptologik tamoyillarga asoslangan ideografik lug‘at sifatida tushuniladi. Keyingi vaqtarda yaratilayotgan tezaurus va ontologiyalar esa funksional jihatdan semantik lug‘atlar tarkibiga kiradi. Shuningdek, bunday lug‘atlar ideografik lug‘atlar tipiga ham mansub, chunki bu lug‘atlarni tuzishda semantikaga alohida e’tibor beriladi va mavzu maydoni muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Tezauruslar ideografik lug‘atning bir turi sifatida iyerarxik munosabatga asoslanadi va unda semantik modelning “jins-tur”, “qism-butun”, “sinonim” munosabatlari ifodalananadi. Tezaurus lug‘atlarda ma’lum atama uchun aloqador bo‘lgan boshqa tushunchalar aks ettiriladi [Abduraxmonova, 2023].

O‘zbek tili morfologiyasida, boshqa so‘z turkumlari qatori sifat ham katta o‘rinni egallaydi va o‘zining leksik-grammatik va semantik xususiyatlariga ko‘ra mustaqil so‘z turkumi sifatida ajratilgan. Tilshunoslikda sifat so‘z turkumining o‘rganilish tarixi juda qadim davrlarga borib taqaladi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘atit turk”, Mahmud Zamashariyning “Muqaddimat-ul adab”, “Asos-ul balog‘a”, Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lug‘atayn” kabi asarlaridayoq sifatlarning belgi ifodalash xususiyati, ularning turli xil tashbehtar va badiiy san’atlarni yuzaga keltirishdagi imkoniyatlari haqida muayyan fikr-mulohazalar mavjud edi.

60-yillarga kelib o‘zbek tilshunosligida sifat turkumiga oid so‘zlarni o‘rganishga tilshunos olima M.Sodiqova katta hissa qo‘shdi. Olima 1963-yilda “O‘zbek tilida rang-tus bildiruvchi sifatlar” mavzusida nomzodlik ishini himoya



qildi. Ikki tomlik “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (1966) va “O‘zbek tili grammatikasi” (1975) nomli tadqiqotlarning “Sifat” mavzularini yozdi, 1974-yilda olimaning “Hozirgi o‘zbek tilida sifat” nomli monografiyasini e’lon qilindi.

O‘tgan asrning 70-90-yillarida o‘zbek tilshunosligida sifat turkumini talqin etish yanada chuqurlashdi va ilmiy tus oldi. Jumladan, keyingi o‘ttiz-o‘ttiz besh yil davomida o‘zbek tilshunosligida tilning grammatik qurilishini, lug‘aviy tarkibini o‘rganish sohasida sezilarli yutuqlar qo‘lga kiritildi. Pardayev Z.ning “O‘zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari” nomzodlik dissertatsiyalarining bir bobiga “Rang bildiruvchi sifat leksemalarning semantik-uslubiy xususiyatlari” deb nomlangan. Mazkur bobda “qora”, “oq”, “qizil”, “yashil” kabi tilimizda keng tarqagan rang bildiruvchi leksemalarning semantik-uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan [Pardayev, 2004]. N.Jumatova “O‘zbek xalq maqollaridagi rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar” maqolasida “oq” va “qora” ranglari qatnashgan maqollarni atroflicha tahlil qilgan. Ming yillardan beri shakllanib kelayotgan maqol-u matallardagi ranglar jilosiga ahamiyat qaratgan [Isroilova, 2020].

O‘zbek tilida sifat so‘z turkumi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning ayrimlarini yuqorida keltirib o‘tdik. Hozirgi kunga qadar sifat leksik, semantik, uslubiy, funksional jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa-da, bu turkum uchun o‘zbek tilida hali tezaurus lug‘ati yaratilmagan. Bu yo‘nalishda olimalarimiz N.Abduraxmonova, M.Abjalova, Sh.Hamroyeva o‘z munosabatlarini bildirib o‘tishgan. Bu esa, o‘zbek tili tezaurusi uchun sifat leksemalarning semantik munosabatlarini tadqiq etish hali tilshunoslar oldida turgan vazifalardan ekanligini bildiradi.

Tezaurus lug‘atlar bir so‘z semantikasi bilan bog‘liq barcha belgilarni qamrab oladigan, matnda qo‘llanish xususiyatlarini to‘liq aks ettiradigan kompyuter lug‘atidir. Tezaurus giperhavola vositasida boyitilgan katta hajmdagi ma’lumotlar bazasidir. Xususan, “achchiq” leksemasining barcha ma’noviy semalarini yig‘ib, quyidagicha tezaurusni ishlab chiqdik:

Nº	Tezaurus qolipi	So‘zning semantik pasporti
1.	So‘zning yoki til birligining morfologiya va sintaksisiga aloqadorligi	O‘zbek tilida maza-ta’m ma’nosidagi achchiq so‘zi tezaurusini ko‘rib chiqamiz. achchiq – maza-ta’m bildiruvchi sifat. Achchiq – ta’mi og‘iz-tilni achitadigan, lovullatadigan: achchiq garmdori.
2.	Talaffuz qilinishi	achchiq
3.	Semantik tarkibi	<i>so‘zning asl ma’nosi:</i> Achchiq – nordon, tishni qamashtiradigan meva-sabzavot navi: achchiq olma, achchiq karam. <i>B) ko‘chma ma’noda:</i> Umuman, salbiy belgini bildiradi: 1.Achchiq – jazillatadigan, jonni achitadigan: achchiq shamol.



		<p>2. Achchiq – kishiga qattiq tegadigan, noxush, ko‘ngilga botadigan: achchiq gap.</p> <p>3. Achchiq – g‘am-iztirobli, alamlı: achchiq damlar, achchiq xotira.</p> <p>4. Achchiq – qahr, jahl, zarda: achchig‘i burnini uchida.</p> <p>5. Achchiq – qiyinchilik, mashaqqat, g‘am-g‘ussa, azob-uqubat kabi ma’nolarni ifodalaydi (O‘TIL, II, 183)</p> <p>C) sinonimi: nordon, tilni lovullatadigan</p> <p>D) omonimi: –</p> <p>E) antonimi: mazali, totli, shakarli, yoqimli, chuchuk, lazzatlı</p> <p>F) paronimi: –</p> <p>G) giperonimi: maza-ta’m</p>
4.	Yaqin ma’nodagi so‘zlar	achchiq so‘z, achchiq hayot, achchiq taqdir, achchiq choy, achchiq shamol
5.	Etimologiyasi	Qadimgi turkiy tildagi a:chi-fe’lidan –q qo‘sishmchasi bilan yasalgan.
6.	Frazeologizmlarda qo’llanilishi	<p><u>Achchiq</u> <u>choy</u> <u>damlanib</u>, <u>shopirib-shopirib</u> <u>qaytarilib</u>, <u>xo‘rillatib</u> <u>ichilgan</u> <u>damlarda</u> <u>kimlarning</u> <u>taqdiri</u> <u>hal</u> bo‘lajak. Tohir Malik “Shaytanat 1-kitob”, 1989</p> <p><u>Mahmudxon</u> <u>achchiq</u> <u>ustida</u> <u>biror</u> <u>taraflarga</u> <u>ketub</u> <u>qolish</u> <u>ehtimoli</u> <u>ham</u> <u>bor</u>. Abdulla Qodiriy “Baxtsiz kuyov”, 1915</p> <p>Faqat sizning shirin turmushingizga achchiq oralamasin, deyman-da....R. Tagor “Aka va uka”</p> <p>Uning oxirgi sultanati xonlik istibdodining achchiq zulm va taaddilarining jonso‘z qora sahifalarini tashkil etadilar. Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon”</p>
	Birikmalar tarkibida	Yaxshidir achchiq haqiqat, Lek shirin yolg‘on yomon. E.Vohidov
7.	Boshqa tillarda qo’llanilishi	<ul style="list-style-type: none"> • inglizcha: <u>bitter</u> • ruscha: горький

Tezaurus “achchiq” leksemasidagi quyidagi semantikani yoritish imkonini beradi: “achchiq” sifat leksemasida quyidagi semalar mavjud:

- 1) nordon; 2) tilni achitadigan; 3) zarda; 4) taxir; 5) jonni achitadigan



Nº	So‘z birikmaları	nordon	Tilni achitadigan	zarda	jonne achitadigan
1.	achchiq xotira				+
2.	achchiq choy		+		
3.	achchiq haqiqat				+
4.	achchiq gap			+	+

“Achchiq” leksemasining birikma hosil qilishida o‘ziga xos jihatlar ko‘zga tashlanadi. “Achchiq” leksemasi taom, suv, kulgu, hayot, xayol leksemasi bilan semantik maydon hosil qiladi, lekin “nordon” leksemasi achchiq leksemasida bog‘lanuvchi so‘zlar bilan semantik maydon hosil qilmaydi. Yuqorida keltirilgan jadvaldan shuni xulosa qilish mumkinki, “achchiq” leksemasi o‘z ma’no ottenkasi bilan bir qatorda ko‘chma ma’noda ko‘proq qo‘llanilar ekan.

Xulosa

Sifat leksemalarining semantik maydoni va tezaurusini yaratishda grammatic hamda sintaktik yaqinlikni hisobga olish lozim. Shundagina tezaurus lug‘atlarni yaratishda leksemalarning kontekst va semantik maydonini yarata olamiz. Demak, so‘zning semantik maydonga mansubligi sinxron xarakterga ega bo‘lib, davrlar osha o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Shuningdek, semantik maydonda so‘zlar bir-biri bilan tutashmasligi qayd etiladi. So‘z ma’nolarining bir-biriga tutashmasligi nisbiy tushuncha bo‘lib, etimologik tahlillar turli maydonga mansub leksemalarning semantik jihatdan bog‘lanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonova N., Qodirova Z. Kompyuter leksikografiyasida ontologiya (monografiya) Toshkent – 2023. – B.71.
2. Israilova S. “Ko‘k” leksemasi semantikasi va tezaurusi. Monografiya. Toshkent – 2023. –B.91.
3. Pardayev Z. O‘zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari. Samarqand – 2004. – B.7.
4. Isroilova S. Sifat so‘z turkumining o‘rganilishi “Filologik ta’limni takomillashtirish muammolari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Toshkent, 2020.